

O’ZBEK TILI LUG’AT TARKIBIDAGI INTERNATIONAL SO’ZLAR

Jumaniyozov Atabay

Yo’ldasheva Dilnura Xamid qizi

Filologiya fanlar nomzodi

Urganch davlat universiteti, professor

Xorijiy filologiya fakulteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada internationalizmlar tadqiqi bo'yicha qisqacha ma'lumot berilib, internationalizm atamasiga olimlar tomonidan bildirilgan fikrlar sharhlaniladi va shaxsiy fikrlar keltiriladi.

Kalit so'zlar: internationalizm, konteyner

Abstract: The article provides brief information on the study of internationalisms, comments on the term internationalism expressed by scientists, and personal opinions are given.

Key words: internationalism, container

Milliy iqtisodiyotning tobora o'sib borayotgan tarmoqlari, tovarlar va xizmatlar savdosi, texnik bilimlar, shuningdek, yangi aloqa va axborot xizmatlari tez sur'atlar bilan yanada rivojlanib bormoqda. Binobarin, bu faollikning asosiy omili til hisoblanadi. Chunki hayot va jamiyatdagi har qanday o'zgarish tilda va u orqali amalga oshadi. Fan, madaniyat, san'at, siyosat, sanoat va qishloq xo'jaligi sohalaridagi ilg'or tajriba almashuvlar, dunyoning turli burchaklaridan kelgan xabarlar va ma'lumotlarni har kim o'z ona tilida ishlab chiqishi kabi zaruriy faktorlar tillar rivojiga va o'zaro so'z almashuviga barakali ta'sir qilmoqda. Ikki millat o'rtasidagi muloqot mobaynida xalqaro so'zlar alohida ahamiyatga egadir. Ular bugungi ko'p millatli va globallashgan dunyoning ajralmas bo'lagi bo'lib kelmoqda. Bularni o'rganish bugungi kunda aktual masala sanaladi.

Shu ma'noda internatsionalizm tadqiqoti esa - bu bir nechta tillar o'rtasidagi fonetik, morfologik va leksik jihatdan o'xshashliklarni ko'rib chiqib, taqqoslab, tahlil qilishdir. Xalqaro so'zlar shu paytgacha ko'p o'rganilgan, biroq maxsus o'rganish va izlanish obyekti qilib olingan fundamental darajadagi ishlar kam. Bu masalaga bag'ishlangan risolalarning ko'pchiligidagi internationalizmlar asosan so'z o'zlashuvi muammolari bilan bog'liq ravishda, uning bir kichik qismi sifatida tahlil qilingan. Bu fenomenal masalaga olimlar turfa tomondan yondashib, turfa fikrlar bildirishgan. Berilgan ta'rflarga chuqurroq nazar tashlanadigan bo'lsa, international so'z uchrovchi tillarning soni, u kelib chiqqan tilning dunyo tillari orasidagi o'rni, uning boshqa tillar bilan aloqasi, qo'llanilish sohasi va chegarasi kabi bir qator masalalarda Braun, Schaeder va Volmert ‘Internationalismen – Studien zur interlingualen Lexikologie und

Lexikographie" (1990), Bergmann „Europäismus“ und „Internationalismus“ (1995), Pogarell, Filz Kania, O. Espersen, Akulenko, G. Frohne kabi tilshunoslar turlicha, ba’zi holatlarda esa bahsli fikrlar bildirganliklari ko’zga tashlanadi. Ta’riflarning ba’zilarini ko’rib chiqib tahlil qiladigan bo’lsak bunga guvoh bo’lamiz. Pogarell (1988:47)¹ internatsionalizmlar bir necha yoki ko’p tillarda o’xhash shakllarda paydo bo’ladigan xorijiy so’zlar ekanligini tushuntiradi. Internatsionalizmlar, ayniqsa, xalqaro aloqalar uchun muhimligini va ko’p sohalarni ularsiz tasavvur qilish qiyinligini ta’kidlaydi.. Ular chet tilidan hech qanday ma'lumotga ega bo'lмаган holda xorijiy so'zlarni tushunishga hissa qo'sishi bilan ham katta ahamiyatga ega degan fikrni aytadi. Ko’rib turganimizdek Pogarell fikricha international so’z bir necha yoki ko’p tillarda o’xhash bo’lishi aytilgan. Biz Dudendan (2001)² shunga o’xhash ta’rifni oldik, unda shunday deyilgan: "Internationalizm - bu "[...] turli madaniy tillarda bir xil ma'noda va bir xil yoki o’xhash shaklda uchraydigan so'z (masalan, konteyner)[...].

Container

Deutsch	Englisch	Franzoesisch	Russisch	Usbekisch
Der Container	Container	conteneur	Контейнер	konteyner

Ushbu misol konteyner so'zining bir necha tillarda o’xhash shaklda paydo bo'lgani uchun internatsionalizm ekanligini aniq ko'rsatadi. Duden ta’rifiga ko'ra, u turli madaniy tillarda bir xil yoki o’xhash shaklda paydo bo'lgan so'z bo'lishi kerak deyilgan.

Volmert ta’rifida esa (Volmert Filz Kania 2010:17 da iqtibos keltirgan):

[...] agar u kamida uchta taqqoslash tilida bir xil yoki o’xhash va mazmun bilan bog’liq so’zlarga ega bo’lsa, bunda taqqoslash tillaridan biri boshqa til guruhidan kelishi kerak. (Filz Kania 2010:17)³.

Volmert esa Pogarelldan farqli ravishda tillar sonini aniq aytib kamida uchta taqqoslash tilida deya talab qo'ygan.

Ingliz olimi O. Espersen yuqoridagi fikrlarga qarshi o’laroq, so’z international bo’lmog’i uchun, u qo’llanilayotgan tillarning soni emas, balki shu so’zlarni nutqida qo’lllovchi odamlar soni mezon bo’lmog’i kerak, degan fikrni o’rtaga tashlaydi⁴.

¹ Pogarell, Reiner (1998): „Sitzung“ oder „Meeting“?: Historische und aktuelle Fragestellungen zur Sprachreinigung in Deutschland. Paderborn: IFB Verlag, (=Beiträge zur Betriebslinguistik, Bd.2).

² Duden (20017): Das Fremdwörterbuch. Mannheim [CD-ROM]. Sat_Wolf, Bayern.

³ Filz Kania, Agnieszka (2010): Internationalismen unter dem Verwendungsaspekt. Pragmatisch-semantische Analyse anhand empirischer Daten von polnischen Studierenden der Germanistik. Dissertation. Wien.

⁴ Jespersen O. Papers in international language. London, 1921

Ko’rib turganimizdek fikrlar xilma-xildir. Biz bunga o’xhash ta’riflarni ko’plab keltirishimiz mumkin. Chunki ba’zi olimlar xalqaro so’zga ikkita, uchta va hatto beshta tilda bir xil bo’lish shartini qo’yishadi. Xulosa o’rnida aytish mumkinki, so’z international bo’lishi uchun morfologik va semantik jihatdan ikkita tilda o’xhash yoki bir xil bo’lishi muhim omildir. Yana bir tomoni ham borki, mazkur so’zlar, asosan, G’arbiy Yevropa tillariga xos bo’lishi ahamiyatlidir. Chunki ilmiy texnik revolutsiya ta’sirida international xarakterga ega bo’lgan so’z va terminlarning deyarli hammasi G’arbiy Yevropa tillariga mansubdir.

Hozirgi o’zbek adabiy tili va xalq shevalari leksikasida ayniqsa, rus va ingliz tilidan o’zlashgan international so’zlarning ulkan salmoqli qatlami mavjud. Shu ma’noda ruscha-yevropacha so’zlar ham ijtimoiy hayotning turli sohalariga tegishli bo’lib, ular orasida, ayniqsa, kundalik turmushga oid so’zlar va ilmiy-texnikaviy terminlar nisbatan ko’pchilikni tashkil etadi. O’zbek tiliga rus tilidan yoki u orqali boshqa tillardan o’zlashgan so’zlarning aksariyat qismi ijtimoiy-siyosiy hayotga oid nomlar va ilm-fan, maorif, pochta-telegraf, transport sohalariga oid terminlardir. Bunga misol qilib *politsiya*, *teatr*, *salat*, *shokolad*, *mandarin* so’zlarini keltirishimiz mumkin. Tilimizga Yevropa tillaridan rus tili orqali kirib kelgan so’zlar hozirgi davrgacha “international leksika”, “rus-international”, “soviet-international” kabi terminlar asosida o’rganilib kelingan. Bu so’zlarning Yevropa tillarining qaysi biriga oid ekanligi, ularning bizga yetib kelguncha talaffuzi, imlosi va ma’nolaridagi o’zgarishlar, ularning o’zbek tilidagi keyingi ravnaqi kabi masalalar keng ko’lamda tadqiqot obyekti qilib olinmagan. Bu borada o’zbek tilshunosligida qilingan eng katta yutuqlardan biri 14 jildlik “O’zbek sovet ensiklopediyasi” va ikki jildlik “O’zbek tilining izohli lug’ati”ning nashr qilinishi bo’ldi. Bu lug’atlar bilan tanishib chiqar ekansiz, ularda qayd etilgan chet so’zlarning o’zbek tilidagi hajmi oz emasligi, ularning o’zbek tilidagi ravnaqi, o’zbekcha so’z yasovchi qo’shimchalar yordamida boshqa so’z yoki shakl olganliklari, ma’nolaridagi o’zgarishlar, ayniqsa ko’chma ma’no kasb etish kabi holatlari diqqatni tortadi.⁵

Aytish joizki shu paytgacha, milliy mustaqillikkacha, international so’zlar bizga bilvosita rus tili orqali kirib kelgan. Hozirgi kunda esa bu jarayon bevosita amalga oshmoqda. Texnologiya tobora rivojlangani sari nutqimizda, ayniqsa, inglizcha international so’zlar ko’payib bormoqda. Ular nafaqat so’zlashuv tilimizda, balki adabiy tilda ham faol qo’llaniladi. Misol qilib “golf”, “avtolizing”, “briefing”, “import”, “marketing”, “miting”, “mixer”, “slayd”, “kollej”, “klub”, “reyting”, “blok”, “grant”, “gangster” so’zlarini aytish mumkin.

Kodifikatsiyalanmagan, biroq kundalik hayotda faol va umumtushunarli o’zlashmalar borasida shuni aytish mumkinki, tilimizga “twitter”, “blog”, “blogger”,

⁵ Atabay Jumaniyozov “O’zbek tilidagi german tillari o’zlashmalari” Toshkent: Fan, 1987

“*klaster*”, “*hosting*”, “*telegram*”, “*instagram*”, “*facebook*”, “*fake*”, “*follow*”, “*follower*”, “*challange*”, “*casting*”, “*online*”, “*offline*”, “*lifehack*”, “*flashmob*”, “*payme*”, “*click*”, “*tik-tok*”, “*hot-dog*”, “*gamburger*”, “*wi-fi*”, “*screening*” kabi yuzlagan chet so’zlar o’zlashdiki, ular nafaqat matbuot sahifalarida, radioeshttirishlarda va televideniya ko’rsatuvlardan, balki oddiy avom xalq so’zlashuv tilida ham kundalik hayot uchun zaruriy muloqot vositasi va ijtimoiy turmushning ifoda tarziga aylandi. Ular xalqimizning tilida faol qo’llaniladi, kundalik ijtimoiy turmush shu o’zlashmalarsiz ifodalana olmaydigan tarzga aylandi, ular so’zlashuv tilining og’zaki va yozma nutqda leksik jihatdan meyorlashdi. Bu o’zlashmalar kundalik muloqot normalariga imlo, talaffuz va ma’no jihatdan moslashgan bo’lsa ham hali lug’atlarimizda kodifikatsiya qilinib ulgurmadi.⁶

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pogarell, Reiner (19981): „Sitzung“ oder „Meeting“?: Historische und aktuelle Fragestellungen zur Sprachreinigung in Deutschland. Paderborn: IFB Verlag, (=Beiträge zur Betriebslinguistik, Bd.2).
2. Duden (20017): Das Fremdwörterbuch. Mannheim [CD-ROM]. Sat_Wolf, Bayern.
3. Filz Kania, Agnieszka (2010): Internationalismen unter dem Verwendungsaspekt. Pragmatisch- semnatische Analyse anhand empirischer Daten von polnischen Studierenden der Germanistik. Dissertation. Wien.
4. Jespersen O. Papers in international language. London, 192
5. Atabay Jumaniyozov 35-bet
6. Gulshoda Xodjayeva “Til normasi va o’zbek tiliga german tillaridan kirib kelgan so’zlarning leksikografik kodifikatsiyasi” 135-bet

⁶ Gulshoda Xodjayeva “Til normasi va o’zbek tiliga german tillaridan kirib kelgan so’zlarning leksikografik kodifikatsiyasi” 135-bet